

Jaloliddin

SAVOLLAR INSONLARNI O'ZGARTIRADI

Savol ilmning kalitidir

"Insonda bir savol bo'lishi, bir narsani bilishni xohlashi, hayotni go'zallashtiradi. Inson bilmaydigan bir sirning bo'lishi esa, insonni yashashga undaydi..."

Jaloliddin

Bu hayotda yashashdan maqsad nima ?

Inson baʼzida oʻzi hayotni murakkablashtirib yuboradi, aslida esa hayot siz oʻylagan darajada murakkab emas! Agar siz dunyoda oʻzingiz uchun yangi bir narsa sotib olsangiz, masalan: telefon, soat, kompyuterni va boshqalar. Har bir yangi sotib olgan narsangizning ichida yoʻriqnomasi boʻladi, yaʼni "инструкция". Siz shu yoʻriqnoma orqali olgan yangi mahsulotingizdan qanday foydalanishni oʻrganasiz, toʻgʻrimi? Agar bu yoʻriqnomaga amal qilmasangiz, mahsulot ishdan chiqadi, yoki uni umuman ishlata olmaysiz.

Hayot ham xuddi shunaqa, Alloh biz uchun bu yerni yaratdi va shu yerda yashashimizni iroda qildi. Bu yer yuzi biz uchun yangi joy, bu yerda qanday yashashni, nimalar bilan band boʻlishimiz kerakligini bilmas edik. Lekin Alloh bizga bu dunyoda yashash yoʻriqnomasini tushirdi va shu asosida yashashimizni xohladi.

Bu yo'riqnoma shariat deb ataladi. Agar inson bu shariat buyruqlarini ado etsa va qaytariqlariga bo'ysunsa, u inson bu hayotda saodat topadi, ya'ni yo'riqnoma bo'yicha ish qilayotgan bo'ladi. Agar bir narsa o'z yo'riqnomasi ila harakat qilayotgan bo'lsa demak u o'z maqsadida harakatda bo'ladi!

Alloh bizni yaratishidan va yerga tushirishidan maqsad, O'zini tanitishdir. Biz bu hayotda Allohni tanish uchun yashaymiz! Agar Allohni tanisak, Uning Buyukligini tushunib yetamiz va unga ibodat qilamiz. Agar ibodat qilsak Alloh bizdan rozi bo'ladi va Jannatiga kirgizadi. Agar Jannatga kiradigan bo'lsak, biz Allohning jamolini ko'ramiz! Bundan-da ulug'roq maqsad bo'lishi mumkinmi !?

"Shunday yashagin-ki, bir inson san haqingda yomon gap aytsa, insonlar ishonmasin..."

Nega boshimizga musibatlar keladi ?

Birinchi navbatda inson bilib olishi lozim, bu dunyo Jannat emas, bu dunyo imtihon dunyosi! Biz bilan sodir bo'layotgan har bir ish imtihondir. Alloh bergan: dard, sinov, qiyinchilik. Hammasini o'tadi! Alloh taolo bizga sinov beradi va bu sinovni yechimini ham beradi. Lekin shu sinovda bo'lgan vaqtimiz, bizning iymonimiz imtihon qilinadi.

Musibatlar ikki xil bo'ladi:

1. Inson qilgan gunohlariga kafforat sifatida beriladigan musibatlar.

Inson bu dunyoda bilib bilmay juda ko'p gunohlar qilib qo'yadi, ming afsus! Inson odatda bu gunohlari uchun istig'for aytishni unutadi. Shu sababda Alloh bu suyukli bandasiga musibat beradi va bu musibat bilan bandasining gunohlarini kechirib yuboradi! Ba'zi insonlarni ko'ramiz,

harom ishlarga botib yurgan bo'lsa ham hech qanday musibat kelmaydi, hatto tishi ham og'rimaydi. Bu holat esa juda yomon, chunki Alloh bu bandani hisob kitobini qiyomat kuniga olib qo'yibdi, qiyomatda esa inson bu gunohlariga javob berishi qimmatga tushadi. Shu sabab agar sizda ham gunohlar qilsangiz-u lekin jazo olmayotgan bo'lsangiz, Allohga tavba qiling va jazoni qiyomatga qoldirmasligini so'rang!

2. Insonning darajasini ko'tarish uchun beriladigan musibatlar.

Ba'zan inson gunoh qilmasa ham, Allohning yo'lida, ibodatda, halollikda bo'lsa ham uning boshiga musibatlar kelaveradi. Bunga misol, o'tmishda o'tgan ulug' zotlarning hayotlaridir. Insonning Allohning oldida darajalari bo'ladi, biz bu darajani ko'rmaymiz, lekin Alloh bilguvchi! Alloh o'z bandasiga marhamat qiladi, bu dunyoda musibatlar berib, oxiratdagi darajasini ko'taradi.

Agar sizda shu holat yuz berayotgan bo'lsa Allohga hamd ayting! Bir olim insonda so'rashgan ekan: Meni boshimdagi bu ishlar Allohning jazosi yoki marhamati ekanligini qayerdan bilaman? U zot: Agar bu ishlar seni Allohga yaqinlashtirayotgan bo'lsa, Allohning marhamati, agar uzoqlashtirayotgan bo'lsa, jazosi deb javob bergan ekan.

Agar gilam chang bo'lib ketsa, qoqib changini ketkazamiz to'g'rimi? Ya'ni insonning gilamni "yog'och" bilan urishi, uni yomon ko'rganidan yoki gilamga aziyat bermoqchi bo'lganidan emas, balki undagi zararni ketkazish uchundir. Allohning bizga sinovlar berishi ham aynan shu maqsad ila bo'ladi, ya'ni sinovlar va mashaqqatlar bilan bizdagi gunohlarni to'kadi. Bizga kelayotgan sinovlar insha'Alloh gunohlarimizga kafforat bo'ladi.

*"Alloh sinovni ham, uning yechimini
ham beradi"*

Nima uchun inson yolg'on gapiradi ?

Odatda inson ikki sabab bilan yolg'on gapiradi:

1. Foydani jalb qilish uchun.

Odatda kattalar ko'proq foydani jalb qilish uchun yolg'on gapiradilar. Masalan, ming afsus bu holatni bozorlarimizda uchratishimiz mumkin. Bir savdogar o'z mahsulotini o'tkazish uchun xaridorga, mahsulot ega bo'lmaga sifatlarni aytib mahsulotini sotishga harakat qiladi. Yoki bir inson, ishga kirish uchun, kompaniya talablariga to'laqonli javob berishini aytib ishga kirishga harakat qiladilar.

2. Zarardan qochish maqsadida.

Odatda bolalar zarardan qochish maqsadida yolg'on gapiradi. Masalan, bolakay oshxonada bir idishni sindirib qo'yadi lekin Onasiga men sindirmadim deydi.

Yoki maktabda ikki olgani sababli, kundaligim uyda qolib ketibdi deb yolg'on gapiradi va zararni daf qiladi. Lekin shu kunlarda insonlar, ma'lum bir insonlarga yoqish uchun yolg'on gapirayotganlarini guvohi bo'lamiz. Chunki haqiqat bilan insonlarni jalb qilolmagani sabab, yolg'on gapirishga o'tadi.

Navos ibn Sam'on roziyallohu anhu aytadilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birodaring seni tasdiqlab deb turganida, unga yolg'on gap aytishing katta xiyonatdir», dedilar» (Ahmad rivoyati).

*"Menga yolg'on gapirganiydzdan xafa
emasman. Men endi sizga ishona
olmasligimdan xafaman"*

Yaqin insonlarimiz doim yonimizda bo'lishlari uchun nima qilishimiz kerak ?

Bu borada 3ta tavsiya beramiz:

1. Yoningdagi insonlarning kichik yutuqlaridan ham quvongin va buni e'tirof etgin.

Sabab, insonlar doim katta bo'lsin yoki kichik qilgan ishlarini e'tirof etishlari hohlaydi va kutadi.

2. Yoningdagi insonlarni hech qachon boshqa birovlar bilan solishtirma.

Sabab, solishtirish doim salbiy holatga olib keladi, inson mukammal emas, solishtirish sababidan u insonlardagi hatolar ko'zga tashlana boshlaydi.

3. Yoningdagi insonlarni qiyin kunida yonida bo'l. Xoh moddiy, xoh ma'naviy tomondan ularni qo'llab quvvatla.

Sabab, insonlar boshiga musibat yetgan paytida yonida bo'lganlarni ham, bo'lmaganlarni ham yaxshi eslab qoladi va butun umr unutmaydi.

Yoningdagi insonlarni musibatga tushib qolgunicha kutma, avvalroq harakat qil !

Ularning quvonchli kunlariga sababchi bo'li!

*"Xohlagan insoningni yaxshi ko'r, lekin
bir kun kelib sen, yoki u bu dunyoni
tark qiladi..."*

Do'st nima uchun kerak ?

Do'st suyanish uchun kerak, kurashish uchun kerak, dardlashish uchun kerak, sog'inish uchun kerak va eng muhimi iymonlashish uchun kerak!

Do'stlik Alloh uchun bo'lsagina bu haqiqiy do'stlikdir.

Ba'zi insonlarga hayron qolaman, do'stlarim faqat ishi tushganida qo'ng'iroq qilishadi, uyimga kelishadi deydi. Ahmoq, do'st shu uchun kerak emasmi o'zi, shu emasmi do'stlikning maqsadi. Do'st bo'lganing uchun u seni oldinga kelyapti, bu uchun unda ranjishning keragi yo'q. Ba'zan dunyo tashvishlari sabab do'stlardan xabar olishning imkoni qolmaydi va bu tabiiy. Haqiqiy do'stlik masofa tanlamaydi!

Hayot hammani har tomonga otadi. Hamma ham o'zini do'stdek ko'rsatishi mumkin lekin ba'zi holatlarda ularning asl yuzini ko'rib qolasan kishi.

Do'st borasida alhamdulillah omadim chopgan! Do'st xiyonati haqida fikr bildiray olmayman, faqat do'stning sodiqligi haqida gapirishim mumkin! Eng muhimi to'g'ri do'st tanlashdir, chunki inson do'stining dinida bo'ladi. Do'st bu oynadir! Sizdagi bor narsani ko'rsatuvchi. Yomonlik bo'lsa yomonlik, yaxshilik bo'lsa yaxshilikni. Inson hayotida o'zi ma'lum bir odamlar bor, agar ular bo'lmaganlarida hayot qiziq bo'lmas edi. Do'st va dushman bilan hayot qiziqdir.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: "Alloh taolo Qiyomat kuni: "Azamatim uchun do'st bo'lganlar qani? Bugun, Mening soyamdan boshqa soya yo'q kunda O'z soyam bilan soyalantiraman", deydi", dedilar. (Imom Muslim)

*"Haqiqiy do'stlar Alloh uchun yig'ilib,
Alloh uchun tarqaladilar."*

Vaqtimni kimlar bilan o'tkazyapman ?

Agar bola hech nimaga intilmaydigan tengdoshlari bilan do'stlashsa, u ham hech nimaga erisha olmaydi, deb hisoblaymiz. Biroq nima uchundir buning kattalarga ta'siri haqida o'ylamaymiz. Sizning do'stlaringiz tishini tishiga qo'yib, o'ziga yoqmaydigan ishda ishlasa yoki nosog'lom hayot tarzini tutsa, hoynahoy siz ham shunga o'xshash qarorlar qabul qila boshlaysiz. Do'stlaringiz va hamkasblaringiz haqida o'ylab ko'ring: ular sizni qo'llab-quvvatlab, ilhom bag'ishlaydimi yoki aksincha, orqaga tortishadimi? Yoningizda taqvoli, ibodatlariga e'tiborli insonlar bo'lsa, siz ham shu ishni boshlaysiz va taqvoli bo'lib qolasiz!

Bu siz o'qiyotgan, ko'rayotgan, o'ylayotgan narsalaringizga ham taalluqli. Vaqt o'tgan sayin bizning hayotimiz atrofimizdagi muhitga monand bo'lib boradi, shuning uchun unga e'tiborli bo'ling.

*To'g'ri ishlatilmagan vaqt yoki mablag'
insoni halokat sari boshlaydi.*

Nega uchun insonlar g'iybat qiladi ?

G'iybat qilishimizning sababi, ilmsizlikdir! Ya'ni bu ikki turdagi ilmsizlik:

1. G'iybatning qanchalik og'ir gunoh ekanligini bilmaslik.

G'iybat odamlar o'rtasida nifoq soladigan, oilalarni yemiradigan, jamiyatni parokanda qiladigan qabih illatdir. Shu sabab Alloh taolo buni ulkan gunoh sanab, bandalarini bu ishni qilishdan qaytargan. Ammo shunday bo'lsa-da, g'iybatchilar va bu ishlarini ulkan illat hisoblamaydigan odamlar ham yo'q emas.

2. G'iybat qilishdan boshqa mavzularga ilmimiz yetmasligi.

Bir davrada ilmsiz insonlar yig'ilib qolsa, u yerda aniq g'iybat bo'ladi. Chunki ularni gaplasha oladigan boshqa mavzusi yo'q.

Shu sabab inson avvalo to'g'ri davra tanlay olishi lozim. Inson har kuni ilm olib rivojlanishi kerak va yon atrofidagi insonlarni ham ilm olishga qiziqtirmog'i lozim.

“Ey iymon keltirgan bandalar ko'p gumon qilishlikdan saqlaning! Ba'zilaringiz Ba'zilaringizni g'iybat qilmasin! Sizlardan birontalaringiz o'z birodarini go'shtini o'lik xolatda yeyishlikni xohlaydimi?! Bas, gunohi undan ham yomon bo'lgan g'iybatdan saqlaning”! Hujurot surasi.

G'iybatchini "g'iybatchi" deyish ham g'iybat...

Inson nima uchun halovat istaydi ?

Insonda "halovat" degan bir go'zal tuyg'usi bor va bu tuyg'u bizga Odam alayhisalomdan o'tgandir. Odam alayhisalom Jannatda bo'lgan va U Jannatdagi halovatni totib ko'rgan, shu sababdan inson bu dunyoda halovat qidiradi, xotirjamlik qidiradi! Inson bu dunyoda halovat topolmaydi, ming hamma tomonlama to'kin-sochinlik bo'lsin, u insonda million-million puli bo'lsin, 100ta tan-soqchi uni qo'riqlasin, foydasi yo'q! Baribir o'lim degan narsa bor, bu narsa insoning xotirjam bo'lishiga bermaydi! Bu hayotdagi barcha ishlarimiz halovat topish uchun. Ish izlaymiz, yaxshi joyda ishlagimiz keladi, chunki yaxshi pul topishimiz kerak. Agar pulimiz bo'lsa mashina uy sotib olamiz. Bu narsalarga erishganimizda so'ng, bularning bari halovat emasligini tushunib yetamiz! Dunyoda bitta halovat bor, u ham bo'lsa Allohning huzurida, ibodatda, ilm majlisida!

"Halovat va xotirjamlik – halollikda"

Nega insonlar aynan mendan yordam so'raydilar ?

Bir kishi sizning yoningizga yordam so'rab keldimi, biling uni Alloh yubargan! Bir qo'shningiz sizning uyingizga yordam so'rab keldi, sizdan tashqari yordan so'rashi mumkin bo'lgan insonlar, ya'ni qo'shnilar ko'p edi lekin Alloh aynan sizni tanladi! Shu sababdan agar bir kishi yonimga yordam so'rab kelsa ko'zimga yosh kelay deydi, chunki bu insonni Alloh yuborganini his qilib turaman!

Doim yaxshilik qilaveraylik, chunki yomonlik qiladiganlar yetarlicha.

Yaxshilik – biror bir buyuk ish qilish degani emas. Har kuni oilani olovdan qutqaradigan yoki avtoxalokatga uchragan odamga birinchi tez yordam ko'rsatadigan odamlar ko'p emas. Kichkina narsa yonidan o'tib ketish kerak emas, chunki har bir kichkina yaxshilik bir necha barobar ko'proq qaytib kelishi mumkin.

Yaxshilik o'zi nima? Bu bizning qalbimizdagi nurdir, atrofimizdagi dunyo va harakatlariga bizning bo'lgan nazarimizdir. Yaxshilik tushunchalar nisbiydir. Otishmalar bo'lganida, kimdir qotillikni ko'radi va kimdir esa qattiq urushdagi g'alabani ko'radi. Biror jonivor uxlatilib qo'yilganda, kimdir azob-uqubatlardan qutulganini ko'radi, boshqalari esa yaxshilikni ko'radi. Yaxshilik tushunchasini bitta ibora yoki jumla bilan ifodalanishi mumkin emas, chunki u har bir kishi uchun boshqacha.

“... kimki yaxshilik qilgan holida yuzini Allohga topshirsa, unga Robbi huzurda ajr bordur. Ularga xavf yo'q va ular xafa ham bo'lmaslar.” Baqara surasi 112- oyat.

"Yaxshilikdan yaxshisi yo'q"

Bunga ta'sir o'tkaza olamanmi?

Odatda ko'p vaqtimizni bizga bog'liq bo'lmagan narsalarga sarf qilamiz. Biz o'z xatti-harakatlarimiz, fikrlarimiz, hissiyotlarimizni nazorat qila olamiz. Boshqa odamlar, ob-havo, tashqi hodisalarni esa - yo'q. Biroq odamlarga, ob-havoga va tashqi hodisalarga munosabatni nazorat qilish mumkin. Buni farqlashni o'rgansangiz, nazorat sizning hukmingizda emasligidan ko'nglingiz cho'kmaydi. Shu kunimizda ko'p tarqalgan ish, bu tasir qilolmaydigan ishlarga faqat gap bilan aralashish.

Inson yangiliklarni ko'rishi kerak, bu muhim. Chunki inson o'z mamlakatida va dunyoda nima islohatlar va yangiliklar bo'layotganini bilmog'i lozim. Lekin yangiliklarni ko'rish bilan ularni muhokama qilish umuman boshqa boshqa narsalardir.

*"Qiliching bilan aralashmagan jangga
tiling bilan aralashma"*

Men o'z ishimni qilyapmanmi?

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: "Hayotda siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlab va siz bir umr ishga bormaysiz". Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bu qanday ish ekanini bilasizmi? Tinim bilmay, holdan toyguncha ishlab, baribir o'z ishingizni bajarmasligingiz mumkin. Biz ko'pincha mayda ishlarga chuqurlashib ketamiz, o'zimizga yot bo'lgan narsalar bilan shug'ullanamiz. Bularning bari bandlik hissini uyg'otadi, biroq bizni o'zimiz uchun muhim bo'lmagan narsalarga yaqinlashtiradi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o'z haddi-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir.

To'g'ri, ba'zida inson o'zi yoqtirmagan ishlarni ham qilishga to'g'ri keladi, faqat o'z yoqtirgan ishingizni qilish deb tavsiya berish yaxshi lekin bu tavsiya hammaga ham to'g'ri kelmaydi, afsus.

Kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Inson, farishta, hayvon. Bularning farqi nimada ?

Farishtalarda faqat aql bor, nafs yo'q. Ular faqat Allohga ibodat qilishadi va Allohning amrlarini bajarishadi. Hayvonlarda esa faqat nafs bor, aql yo'q. Ular faqat nafsining istaklariga qarab ish tutadi. Insonda esa bu ikkisi ham bor, ya'ni aql ham, nafs ham.

Agar inson Allohni tanisa, unga ibodat qilsa, qo'lidan kelganicha yaxshi amallarni qilsa va gunohlardan uzoq bo'lsa, bu inson farishtalardan ham ulug' maqomga yetadi. Chunki farishtalarga tanlash imkoni yo'q ular Allohga ibodat va itoat qilish uchun yaralgandir. Ularda nafs istaklar yo'q. Agar bir inson Allohni tanimasa, unga ibodat qilmasa va gunohlarga botib yursa u inson hayvondan ham payt darajaga tushadi. Sababi hayvonlarda aql yo'q, ularda ham tanlash imkoni yo'q, ular faqat nafsining

xohishlariga kirib hayot kechirishadi. Lekin insonda tanlash imkoni bor! Inson xohlasa farishtadan ham yuqori darajaga ko'tarilsa bo'ladi, yoki hayvondan ham past darajaga tushsa bo'ladi, tanlov o'z qo'lingizda! Gunohlarga botib yurgan insonning nafsı aqlida ustun kelganligini bildiradi. To'g'ri hech bir inson farishta emas va buni davo ham qila olmaydi. Lekin bizda uchraydigan bir yomon jihatimiz bor, agar nafsimizga aldanib gunoh qilib qo'ysak, noumid bo'lib qolamiz va o'sha gunohni qayta qilaveramiz. Bu payt esa shayton bizni yanada noumid qilishga harakat qilaveradi. Tavba qilishni niyat qilsangiz, shayton yo'ldan qaytaradi: shuncha gunoh qilding endi Allohı oldiga qaysi yuz bilan borasan deb vasvasa qilaveradi va natijada biz tavbani ortga suraveramiz. Inson qanaqa gumonda bo'lsa Alloh shudir. Ya'ni agar siz Allohni rahimli va kechiruvchi deb bilyabsizmi demak U shunaqa. Agar siz Allohni jazo berguvchi va g'azab qilguvchi deb bilyabsizmi demak U shunaqadir. Shu sababdan Allohga to'g'ri va ijobiy gumonda bo'laylik!

"Gʻaflatda qolib gunoh qilsa Alloh kechiradi, lekin anglab turib gunoh qilsa u gunohni Alloh kechirishi qiyin, chunki anglab turib qilingan gunohda jurʻat boʻladi"

- *Nega uxlamayapsan ?*
- *Kimdir senga savol berib tursa uxlay olasanmi?*
- *Yo'q !*
- *Men ham uxlay olmayman.*
- *Lekin senga hech kim savol bermayapti-ku ?!*
- *O'zimga beradigan savollarim yetarli...*

**SIZNING
HAYOTINGIZNI
O'ZGARTIRGAN
SAVOL BORMI ?**